

ATOM ENERGETIKASI SOHASIDA EKOLOGIK XAVFSIZLIK: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI

Gafurova Muxlisaxon

Bahtiyorova Nasiba Dilmurod qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti talabalari

muxlisaxongafurova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda atom energetikasidan foydalanishda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan xalqaro hujjatlarning ahamiyati va istiqbollari ko'rib chiqiladi. Shunindek, O'zbekiston Respublikasi atom elektr stansiyasini qurayotgan davlat sifatida qo'shilgan xalqaro hujjatlar tahlili va qo'shilishi lozim bo'lgan xalqaro hujjatlar bo'yicha tavsiyalar, Rossiya-O'zbekiston o'rtasida olib borilayotgan hamkorlik ishlari berilgan.

Kalit so'zlar: atom energiyasi, atom elektr stansiyasi, kichik quvvatli atom elektr stansiyasi, IAEA, ratifikatsiya, implementatsiya, xalqaro hujjatlar, ekologik xavfsizlik, yadroviy xavsizlik, "O'zatom", "Rosatom".

ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В ОБЛАСТИ АТОМНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА

Гафурова Мухлисахон Ардашеровна

Бахтиёрова Насиба Дилмурод қизи

Студенты Ташкентского государственного юридического университета

muxlisaxongafurova@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются значение и перспективы международных документов, направленных на обеспечение экологической безопасности при использовании атомной энергии сегодня. Кроме того, дан анализ международных документов, добавленных Республикой Узбекистан как страной, строящей атомную электростанцию, и рекомендации по международным документам, которые следует добавить.

Ключевые слова: атомная энергетика, атомная электростанция, атомная электростанция малой мощности, МАГАТЭ, ратификация, имплементация, международные документы, экологическая безопасность, ядерная безопасность, "Узатом", "Росатом"

ENVIRONMENTAL SAFETY IN THE NUCLEAR ENERGY SECTOR: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN PRACTICE

Gafurova Muxlisaxon Ardasherovna

Bahtiyorova Nasiba Dilmurod qizi

Students of Tashkent State Law University

muxlisaxongafurova@gmail.com

ABSTRACT

In this article, today, the importance and prospects of international documents aimed at ensuring environmental safety in the use of nuclear energy are considered. In addition, the analysis of the international documents added by the Republic of Uzbekistan as a country building a nuclear power plant and recommendations on the international documents that should be added were given.

Key words: *nuclear power, nuclear power plant, small-capacity nuclear power plant, IAEA, ratification, implementation, international documents, environmental security, nuclear vulnerability, "Uzatom", "Rosatom".*

KIRISH

Bugungi kunda davlatlarning iqtisodiyoti jadal o'sishi zaminida tabiiy resurslar taqsinchiligi jahon hamjamiyatida dolzarb muammoga aylanmoqda. Davlatlar o'z tabiiy resurslarini asrash va energiyaga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida muqobil energiyalardan foydalanishga majbur bo'lmoqda. Muqobil energiya manbai sifatida atom energetikasi davlatlar tomonidan foydalanish ommalashib bormoqda. Atom energiyasi bu atom yadrolarida mavjud bo'lgan va yadroviy reaksiyalar hamda radioaktiv parchalanish chog'ida ajralib chiqadigan energiya. Davlatlar tomonidan atom elektr stansiyalari (bundan keyin matnda AES) qurilishi jadalashganligi sababli, atom energiyasidan foydalanish va ekologik zararlarni oldini olish uchun jahon hamjamiyatida xalqaro hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasida energiyani qayta tiklanuvchi manbalar(quyosh,shamol,suv)dan olinishi ham rivojlandi. Ammo olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston kelajakda energiya bilan bog'liq muammolarga duch kelishi va tabiat ifloslanishining yuqori darajasiga duch kelishi mumkin.Shuningdek, rivojlanayotgan davlatlarda elektr tanqisichilikni bartaraf etish, kichik bizneslar uchun yetarli resurslarni yetkazib berishni ta'minlash lozim. Shuning uchun ham yurtimizda atom elektr stansiyasini qurish va undan foydalanish uchun chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "O'zatom" va "Rosatom" o'rtasida hamkorlik o'rnatildi va O'zbekiston AES qurayotgan davlat sifatida xalqaro miqyosda qabul qilingan xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qildi. Biroq, bu faoliyatni to'liq tartibga

solish uchun yana ratifikatsiya qilishi lozim bo'lgan xalqaro hujjatlar mavjud va bu haqida asosiy qismda ma'lumot berib o'tganmiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR


2024-yilning may oyida qayd etilishicha, 32 ta davlatda 440dan ortiq AES o'z faoliyatini amalga oshirmoqda. Mazkur AESlar qanchalik tabiatga xavf soladi? AES atom energiyasini ishlab chiqayotganda radionuklid chiqindilarni chiqaradi, bu esa atrofdagi hayvonot, o'simlik va insonlar hayotiga xavfli hisoblanadi. Xalqaro me'yorlar haqida so'z ketganda, albatta, Xalqaro atom energiyasi tashkiloti haqida ma'lumot berish lozim. 1957-yilda atom energiyasidan to'g'ri va xavfsiz foydalanish, undan harbiy harakatlarda foydalanmaslikni tartibga soluvchi hukumatlararo tashkilot sifatida ta'sis etildi. Mazkur tashkilot tomonidan atom energiyasidan foydalanishdagi xavfsizlik standartlari va qoidalari ishlab chiqilgan. Ushbu hujjatda atom energiyasi xavfsizligini ta'minlashdagi asosiy tamoyillar ko'rsatib o'tilgan:

1. Xavfsizlik uchun javobgarlik;
2. Hukumatning roli;
3. Yetakchilik va xavsizlikni boshqarish;
4. Obyektlar va harakatlarning asosliligi;
5. Himoyani optimallashtirish;
6. Jismoniy shaxslar uchun xavfning limiti mavjudligi;
7. Hozirgi va kelajak avlod uchun atrof-muhitni muhofaza qilish;
8. Baxtsiz hodisalarini oldini olish;
9. Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish.

Yuqoridagilar atom energiyasining xavfsizligini ta'minlash sohasining asosiy tamoyillari bo'lib, faqatgina atom energiyasini ishlab chiqadigan va undan foydalanadigan davlatlar uchun majburiy hisoblanadi. Xalqaro atom energiyasi tashkilotiga (bundan keyin matnda IAEA) ayni damda 176 ta davlat a'zo bo'lgan. (1-ildovaga qarang) 2023-yilda qayd etilgan statistik ma'lumotlarga qaraganda dunyo bo'ylab 32 ta davlatda AESlar mavjud. Ana shu 32ta davlat uchun Xalqaro atom energiyasi tashkiloti tomonidan qabul qilingan xavsizlik standartlari va qoidalari majburiy hisoblanadi.

Eng ko'p yadroviy reaktorga ega mamlakatlar

2019-yilda mamlakatlar bo'yicha ishlagan reaktor bloklari soni



Manba : 2019-yilgi jahon yadro sanoati holati hisoboti

Yuqorida berilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra atom energiyasidan foydalanishda AQSh peshqadamlik qilmoqda va dunyodagi AES larning 1/4 qimi AQSh hududida joylashgan.

Yadro xavfsizligi bo'yicha konvensiya. Mazkur Konvensiya 1986-yilgi Chernobil voqeasidan so'ng IAEA tomonidan 1994-yil qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi atom energiyasining xavfsizligini ta'minlashdan iborat. Konvensiya 35ta moddadan iborat bo'lib, uning 15-moddasida davlatlarga ishchilar va aholiga AES dan kelib chiqadigan radiatsiya ta'sirini o'rganib, radiatsiya ta'siri o'rtacha darajada past bo'lishi va hech kimga ta'sir qilmasligini ta'minlash majburiyatini yuklaydi. 17-moddasida AES qurishga qo'yiladigan talablar belgilangan bo'lib, ikkinchi talab bu AES faoliyatining shaxslarga, jamiyatga va atro-muhitga ta'sirini baholash va zararli omillarni lozim darajada bartaraf etish shartidir. 16-moddasiga binoan, har qanday AES ishga tushishdan oldin sinovdan o'tkazilishi va nazorat qiluvchi komissiya ruxsati bilan ishga tushishiga ruxsat beriladi.

Yadro materiallarini jismoniy himoya qilish to'g'risidagi konvensiya. Mazkur konvensiya dastlab 1979-yil qabul qilingan, 2005-yilda tahrirlangan. Konvensiyaning maqsadi yadro materiallari va AESlarni xavfini bartaraf etish va ularning insoniyatga va atrof-muhitga yetkazishi mumkin bo'lgan xavflarni oldini olishga qaratilgan. Ushbu konvensiyaning o'ziga xos xususiyati shuki, unda atom energiyasi va AES bilan bog'liq jinoyatlar bayon qilingan. Konvensiyaning 7-moddasida quydagilar jinoyat deb topilib, jazo qo'llashga asos bo'ladi:

1. Noqonuniy yadroviy materiallarni olish, egalik qilish, foydalanish, topshirish, o'zgartirish, yo'q qilish, tarqatish va inson o'limiga yoki jiddiy zarar keltirish;

2. Yadroviy materialni o'g'irlash;

3. Tahdid yoki kuch ishlatish yo'li bilan yadroviy materiallarni qo'lga kiritish.¹

Konvensiya yuqoridagi harakatlarni sodir etishni jinoyat deb topishni davlatlarning milliy qonunchiligida belgilanishiga ruxsat beradi. Shuningdek, ushbu harakatlar qasddan sodir etilishi kerakligini belgilab ketgan. Bundan tashqari, yadro materiallarini tashish bilan bog'liq jinoyatlar va ularni tashishda atrof-muhitga zarar yetkazmay tashish usullari belgilangan bo'lib, atrof-muhitga zarar yetkazadigan tarzda yadro materiallarini tashishni taqiqlaydi. Bu konvensiyaning ahamiyati shundaki, davlatlar va jismoniy shaxslarni atom va AES bilan bo'g'liq bo'lgan jinoyatlarni sodir etishdan tiyish va shu yo'l bilan atrof-muhitga yetkazilishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarni oldini olishda namoyon bo'ladi.

Radioaktiv Chiqindilar va Ishlatilgan Yadro Yoqilg'isini Boshqarish Bo'yicha Qo'shimcha Bitim. Mazkur konvensiya 1997-yil qabul qilingan bo'lib, 2001-yil kuchga kirdi. Ma'lumki, atom energiyasini ishlab chiqish jarayonida radioaktiv chiqindilar shakllanadi. Ushbu radioaktiv chiqindilar tabiat va inson hayoti uchun o'ta xavfli hisoblanadi. Olim Sherli Krovning fikricha, atom energiyasi yoqilg'i energiyasidan yaxshiroq, ammo atom energiya hech qanday toza emas. Atom energiyasi chiqindilari bilan nima qilishni bilmaymiz va bu xavfli bo'lishi mumkin. Bu fikr ham asosli, chunki agar radioaktiv chiqindilar atrof-muhitga tarqaladigan bo'lsa, misli ko'rilmagan talofatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli olim Sherli Krov shamol va quyosh kabi energiya manbalarini ustun qo'yadi. Ammo, olim Maykl Burgessning fikricha atom energetikasi o'sib borayotgan iqtisodiyotimiz uchun zarur bo'lgan elektr energiyasini chiqindilarni ko'paytirmasdan ta'minlashga yordam beradi. Olim Sherli Krov ta'kidlagan xavflarni bartaraf etish maqsadida radioaktiv chiqindilar haqida qoidalar belgilangan. Ushbu hujjatning 4-moddasi 4-qismida ishtirokchi davlatlarga xalqaro e'tirof etilgan AES bilan bog'liq bo'lgan standartlar va qoidalarni milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish majburiyatini yuklaydi. Shuningdek, xalqaro hujjatlarda keltirilgan himoya usullarini milliy darajada quvvatlab, ularda foydalanish shartini ham belgilaydi. Bundan tashqari, hujjatda radioaktiv chiqindilar va ishlatilgan yoqilg'ilarni utilizatsiya qilish tartibi belgilangan bo'lib, unga ko'ra utilizatsiya jarayoni insoniyatga, atrof-muhitga xavf tug'dirmasligi, mutaxassislar va nazorat qiluchi organ nazorati ostida xalqaro e'tirof etilgan tartibda amalga oshirilishi shartligi belgilangan. Mazkur hujjatning ahamiyati

¹ "Convention on the Physical Protection of Nuclear Material." IAEA, 1980; revised in 2005.

<https://www.iaea.org/publications/3449/convention-on-the-physical-protection-of-nuclear-material>

shundaki, atom energiyasi ishlab chiqilgandan so'ng, radioaktiv chiqindilar va ishlatilgan yoqilg'ilarning atrof-muhitga xavfini oldini olishidadir.

O'zbekiston atom elektr stansiyasini qurayotgan davlat sifatida amalga oshirgan chora-tadbirlari.

Hozirgi kunda jahon hamjamiyatida energetika ehtiyojlarini qondirish maqsadida atom energetikasidan foydalanish rivojlanmoqda, turli mamlakatlarda AES larni qurish bo'yicha chora-tadbirlar olib borilmoqda. Xuddi shunday chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasida ham amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining IAEA xalqaro hukumatlararo tashkilotiga a'zo bo'lganligi va ushbu tashkilotning AESlari mavjud davlatlarning 32 sonini yana bittaga ko'paytirmoqchi ekanligi hukumatimizning ushbu masalaga bee'tibor emasligining yaqqol namunasidir. O'zbekiston Respublikasi bugungi kunga qadar atom energetikasi bo'yicha sanoqli xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan va O'zbekiston ratifikatsiya qilgan xalqaro hujjat IAEA statuti.

IAEA Statute. O'zbekistonning atom energiyasi bo'yicha xalqaro miqyosda ratifikatsiya qilgan ilk xalqaro hujjati – IAEA Statuti. 1994-yil 14-avgustda ushbu xalqaro hujjatni ratifikatsiya qilish orqali Xalqaro atom energiyasi agentligining to'liq a'zosi bo'ldi va statutda belgilangan atom energiyasidan tinch maqsadda foydalanish, yadro xavfsizligini ta'minlash singari qator majburiyatlarga ega bo'ldi. Statutda IAEA ning maqsad va vazifalari, tashkilot organlari, tashkilotga a'zolik haqida so'z yuritilgan.

O'ylaymanki, atom energetikasiga oid bo'lgan boshqa xalqaro hujjatlarning qabul qilinmaganligiga O'zbekiston Respublikasida AES xali mavjud bo'lmaganligi va ushbu hujjatlarni ratifikatsiya qilishga ehtiyoj paydo bo'lmaganligi sabab bo'lishi mumkin. Ammo, so'ngi yillarda yurtimizda AES qurish va xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlar olib borilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 7-fevralda qabul qilgan "2019-2029-yillarda O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori mazkur ishlar ijrosini ta'minlashda muhim huquqiy hujjat hisoblanadi. Qarorga asosan tasdiqlangan konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ham ishlab chiqilgan. Unda milliy yadro infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari belgilab berildi.

Konsepsiyaning kirish qismida davlatlarning atom energetikasidan foydalanishni ma'qul ko'rishining sababi sifatida atom energetikasining ekologik toza energiya hisoblanishi hamda atom elektr stansiyalarining issiqlik elektr stansiyalaridan farqli tomoni AES larda oltingugurt, uglerod, kul kabi atrof-muhitga zarar keltiruvchi moddalar hosil bo'lmasligi haqida yozib o'tilgan. Konsepsiyaning asosiy maqsadi

infratuzilmasi rivojlangan milliy yadro energetikasini tashkil qilish, umumiy quvvati 2,4 GVt bo'lgan AESni qurish va undan xavfsiz foydalanishni boshlash orqali 2030-yilda mamlakatni ishonchli, xavfsiz, iqtisodiy jihatdan samarali va ekologik toza elektr energiyasi manbai bilan ta'minlash. Ushbu maqsadga erishish uchun belgilangan vazifalar quyidagicha: atom energetikasini tartibga soluvchi huquqiy asoslarni yaratish; birinchi AESni qurish va foydalanishga topshirish; atom energiyasidan foydalanishda atrof-muhit muhofazasini va aholini radiatsiyaviy himoya qilishni ta'minlash; atom ilm-fani va texnologiyalarini rivojlantirish² va boshqa shu kabi muhim vazifalar. Ko'rib turganimizdek konsepsiyaning o'zi ham atom energetikasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni shakllantirish orqali ushbu sohada milliy bazani yaratishni vazifa qilib belgilagan. Ya'ni, O'zbekistonda bu soha to'liq shakllantirilmagan. Kamchiliklar hamda qilinishi lozim bo'lgan ishlar ko'p.

Maqolaning mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qo'shilishi kerak bo'lgan xalqaro hujjatlar yuqoridagi konsepsiyaning "Yo'l xaritasi"da belgilab o'tildi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi yadro xavfsizligi sohasidagi quyidagi xalqaro konvensiyalarga qo'shilishi yoki ularning qoidalarini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga implementatsiya qilishi lozim:

- Yadro xavfsizligi to'g'risidagi konvensiya;
- Yadroviy zarar uchun fuqarolik javobgarligi to'g'risidagi Vena konvensiyasi;
- Yadro avariya to'g'risida tezkor xabar berish to'g'risidagi konvensiyasi;
- Yadro avariylari yoki radiatsiya avariya holatlarida yordam ko'rsatish to'g'risidagi konvensiya.³

Yuqoridagi konvensiyalarga qo'shilish borasida "O'zatom" agentligi majlislarida

muzokaralar olib borilmoqda hamda agentlik bergan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston yaqin kelajakda ushbu konvensiyalarni ratifikatsiya qilishi kutilmoqda. Bu konvensiyalarning ahamiyati shundaki, AES faoliyat yuritadigan hamda yadrodan foydalanadigan boshqa faoliyatni amalga oshiradigan davlat hududlarida ular tomonidan yadroviy obyektlarning xavfsiz ishlashini ta'minlanishi, yadro avariylarining oldi olinishi orqali asosiy maqsad bo'lgan atrof-muhit va insoniyatning xavfsizligini ta'minlash. Jahon tarixida ushbu konvensiyalar qabul qilinishining sababi bo'lgan 1986-yilgi Chernobil voqeasi O'zbekiston hududida ham ro'y bermasligi uchun O'zbekiston atom energetikasi bo'yicha xalqaro hujjatlar bilan


² "2019-2029-yillarda O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident qarori, 2019.

³ "2019-2029-yillarda O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident qaroriga asosan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi", 2019.

tanishib chiqib ularni ratifikatsiya qilishi yoki ularning qoidalarini O'zbekiston qonunchiligiga implementatsiya qilishi lozim.

Atom energetikasi bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida bir necha yangiliklar mavjud. O'tgan oyning 15-sanasi (15.10.2024) bo'lib o'tgan konferensiyada "O'zatom" atom energiyasi agentligi direktori Azim Axmedxadjayev nutq so'zlashdi va bu nutqida O'zbekistonda mamlakat hududlarida kichik quvvatli atom elektr stansiyalarini (bundan keyin matnda KQAES) qurish masalasi ko'rib chiqilayotganligini ma'lum qildi. Shuningdek, Energiya tizimlarining barqaror ishlashi va atom elektr stansiyalarining muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun tizimli va avariya qarshi avtomatika vositalarini rivojlantirish, energiya tarmoqlarini rivojlantirish va elektr energiyasini ishlab chiqarishning manyovrli manbalarini yaratish zarur⁴, degan fikrlarni ilgari surdi va bu muammolarga yechim sifatida kichik modulli reaktorlardan foydalanishni keltirdi: ular passiv reaktiv xavfsizlik tizimlari bilan uyg'unlashgan yuqori xavfsizligi bilan yirik reaktorlardan ajralib turadi, an'anaviy gaz va ko'mir energiya bloklari quvvatiga teng bo'lgan kichik texnik quvvat tufayli energiya tizimiga oson moslashuvchan.⁵

Kelajkdagi kichik AES lar qurilishi uchun maydonlarni dastlabki baholanishi



O'zbekistonda bo'lajak kichik AESlar uchun istiqbolli maydonlar.

27-may kuni Rossiya prezidenti Vladimir Putinning Toshkentga tashrifi doirasida AES qurilishi direksiyasi va "Atomstroyeksport" kompaniyasi ("Rosatom" enjineri bo'limi) o'rtasida KQAES qurilishi bo'yicha shartnoma imzolandi va

⁴ <https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/16/small-aes/>

⁵ <https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/16/small-aes/>

hozirgi kunda “O‘zatom” “Rosatom” bilan kichik AES qurish loyihasi ustida faol ishlamoqda. Bunday faol harakatlarni biz yuqoridagi rasmda atom stansiyalarini qurish uchun 14 ta potensial maydonchalarning mahalliy va xalqaro me‘yoriy hujjatlar, atom elektr stansiyalari uchun maydonlarni tanlash bo‘yicha hujjatlar asosida baholanib o‘rganilayotganidan ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek konferensiyada yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning nutqida kichik atom elektr stansiyasini qurish loyihasini “hayotiy ahamiyatga ega” deb ta’kidlashi ushbu masalaning o‘ta muhimligini ko‘rsatib berdi: “Dunyodagi deyarli barcha yetakchi davlatlar o‘z energetik xavfsizligi va barqaror rivojlanishini atom energetikasi hisobiga ta’minlamoqda. Agar biz O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichiga chiqish istiqbollari haqida o‘ylasak, katta miqdordagi uran zaxiralariga ega va uni uchinchi davlatlarga eksport qilayotgan mamlakatimiz uchun bu loyiha hayotiy ahamiyatga ega⁶”. Ushbu uchrashuvdan song 2024-yil 26-iyun kuni yig‘ilish bo‘lib o‘tdi va bu yig‘ilishda 6 blokli kam quvvatli AES qurilishi shartnomasi kuchga kirish tartibi to‘g‘risidagi bayonnoma imzolandi. Delegatsiya kuz oyida 6 blokli AES uchun infratuzilma ob’ektlari yaratilishi rejalashtirilayotgan maydonni ko‘zdan kechira turib, shtab maydonida belgilangan vaqtda qurilish ishlarini boshlash – barcha infratuzilma bilan ta’minlangan quruvchilar shaharchasini barpo etishga kirishish borasida kelishuvni amalga oshirish yuzasidan dastlabki masalalarni muhokama qildi.

Tavsiyalar.

IAEAning rasmiy saytida agentlik tomonidan O‘zbekistonga jo‘natilgan ekspertlar guruhining O‘zbekistondagi atom energetikasi dasturi infratuzilmasining rivojlanishini ko‘rib chiqish uchun 12 kunlik missiya va uning yakuniy xulosalari berilgan. Yakuniy xulosaga ko‘ra, O‘zbekistonda atom energetikasi sohasida sezilarli yutuqlarga erishmoqda. O‘z hududida AES ni qurish, uning huquqiy-me‘yoriy bazasini takomillashtirish hamda tartibga soluvchi organi mustahkamlash bo‘yicha choralar ko‘rganligi haqida fikrlar bildirgan. Ammo, biroz kamchiliklar mavjudligi va yanada ko‘proq e’tibor berishi lozim bo‘lgan jihatlar bo‘yicha taklif va tavsiyalar berib o‘tgan. Biz ham barcha ma’lumotlarni ko‘rib chiqqan holda o‘z tavsiyalarimizni berib o‘tdik.

1. O‘zbekiston avvalo, atom energetikasi bo‘yicha xalqaro hujjatlarni o‘rganib chiqib, muhim bo‘lgan ko‘plab xalqaro hujjatlarga qo‘shilishi lozim. Qo‘shilishi lozim bo‘lgan quyidagi hujjatlarni keltirishimiz mumkin:

- Yadro xavfsizligi to‘g‘risidagi konvensiya;
- Yadroviy zarar uchun fuqarolik javobgarligi to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi;

⁶ <https://www.gazeta.uz/oz/2024/05/27/nuclear-station-uzbekistan/>

•Yadro avariya to'g'risida tezkor xabar berish to'g'risidagi konvensiyasi va uning protokoli;

•Yadro avariylari yoki radiatsiya avariya holatlarida yordam ko'rsatish to'g'risidagi konvensiya.

Sanab o'tilgan konvensiyalarga qo'shilish orqali yadro xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda atrof-muhit va aholi xavfsizligini ta'minlab, ushbu sohadagi o'z faoliyatini olib borishi maqsadga muvofiqdir.

2.Xalqaro hujjatlar asosida milliy qonunchilik bazasida samarali normalarni ishlab chiqish va ularni mustahkamlashi kerak.

3.Atom energetikasi sohasida malakali kadrlarni tayyorlashi, ularni chet mamlakatlarga tajriba almashish uchun jo'natishi va ularning oylik ish haqini kasbning xavflilik darajasidan kelib chiqib yetarli darajada ta'minlab berishi kerak.

4.Radioaktiv chiqindilar va ishlatilgan yadro yoqilg'isini boshqarish bo'yicha qo'shimcha bitimga a'zo bo'lishi lozim. Chunki atom energiyasini ishlab chiqish jarayonida chiqadigan chiqqindilar atrof-muhitga juda xavfli bo'lib, ushbu xavfni minimallashtirish uchun bitimda berilgan normalarni ichki qonunchiligiga tadbqiq etishi lozim.

5.AES larda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda yoki baxtsiz hodisalar yuzaga kelganda bartaraf etish uchun AES ga yaqin hududlarda favqulodda vaziyatlarda yordam ko'rsatish punktlarini tashkil etish lozim.

XULOSA

Tabiiy resurslarning tugab borishi va ehtiyojlarning o'sishi atom energiyasidan foydalanishga undamoqda. Biroq, u atrof-muhitga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Buni oldini olish maqsadida jahon hamjamiyati tomonidan bir qator xalqaro hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ularda atom energiyasini ishlab chiqish, foydalanish, ulardan chiqqan chiqindilarning atrof-muhitga xavfini minimallashtirish uchun qoidalar belgilangan. Ushbu normalarni amalda qo'llanishini IAEA tomonidan tasdiqlangan komissiya nazorat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi olib borayotgan atom energetikasi sohasidagi davlat siyosati O'rta Osiyo mamlakatlari ichida eng samarali va tezkor hisoblanadi. Yurtimiz istiqbolini ko'zlab, tabiatni asrash va aholini yetarli elektr manbasi bilan ta'minlash maqsadida tajribali mamlakatlar bilan hamkorliklar olib bormoqda.Ularning tajribalaridan kelib chiqib davlatimiz hududida AES lar qurish loyihasi ishlab chiqildi va Rossiya bilan hamkorlikda O'zbekistonda KQAES qurilmoqda.Shuningdek atom energetikasi, uning xavfsizligi bo'yicha xalqaro hujjatlarga qo'shilish masalalari keng muhokama qilinib, tez orada ularni ratifikatsiya

qilish bo'yicha tadbirlar o'tkazilmoqda. IAEA tashkiloti tomonidan berilgan tavsiyalar bo'yicha harakatlar ham bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Ilovalar:

Quyidagi davlatlar Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlikning a'zosi hisoblanadi:

AFGONISTON	GAN	NORVEYA
ALBANIYA	GRESIYA	UMMAN
JAZIR	GUATEMALA	POKISTAN
ANGOLA	GAITI	PALAU
ARGENTINA	MUQADDAS SEE	PANAMA
Armaniston	GONDURAS	PARAGVAY
AVSTRALIYA	VENGRIYA	PERU
AVSTRIYA	ISLANDIYA	FILIPPINS
Ozarbayjon	HINDISTON	POLANIYA
BAHRAIN	INDONEZIYA	PORTUGALIYA
BANGLADESH	Eron, ISLOM RESPUBLIKASI	QATAR
BELARUS	IRAQ	MOLDOVA RESPUBLIKASI
BELGIYA	IRLANDIYA	RUMINIYA
BELIZE	ISROIL	ROSSIYA FEDERATSIYASI
BENIN	ITALIYA	Saudiya Arabistoni
BOLIVIYA	Yamayka	SENEGAL
BOSNIYA VA GERSEGOVINA	YAPON	SERBIYA
BOTSVANA	IORDAN	SEYSEL OROLLARI
BRAZILIYA	QOZOQISTON	SIERRA LEONE
BOLGARIYA	KENYA	SINGAPUR
BURKINA FASO	KOREYA, RESPUBLIKASI	SLOVAKIYA
BURUNDI	KUVAYT	SLOVENIYA
KAMBODIYA	QIRGIZISTON	JANUBIY AFRIKA
KAMERUN	LATVIYA	ISPANIYA
KANADA	LIVAN	SHRI LANKA
MARKAZIY AFRIKA RESPUBLIKASI	LESOTO	SUDAN
CHAD	LIBERIA	SHVEYA
CHILI	LIVYA ARAB JAMAHIRIYASI	Shveytsariya
Xitoy	LIXTENSHTEYN	SURIYA ARAB RESPUBLIKASI
Kolumbiya	LITVA	TOJIKISTON
KONGO	LYUKSEMBURG	TAILAND
KOSTA RIKA	MADAGASKAR	SOBIQ YUGOSLAV Makedoniya RESPUBLIKASI
COTE D'IVUAR	MALAVI	TUNIS
XORVATIYA	MALAYSIYA	TURKIYA
KUBA	MALI	UGANDA
KIPR	MALTA	UKRAYNA
CHEX RESPUBLIKASI	MARSHALL OROLLARI	Birlashgan Arab Amirliklari
DEMOKRATIK RESPUBLIKASI	MAVRITANIYA	Birlashgan Qirollik
KONGO	MAURITIUS	BUYUK BRITANIYA VA Shimoliy Irlandiya
DANIYA	MEKSIKA	BIRLEKIK RESPUBLIKASI
DOMINIKA RESPUBLIKASI	MONAKO	TANZANIYA
EKVADOR	MO'G'OLIYON	Amerika Qo'shma Shtatlari
MISR	CHernogoriya	URUGUAY
EL-SALVADOR	MAROKKO	O'ZBEKISTON
ERITREA	MOZAMBIK	VENESUELA
Estoniya	MYANMAR	Vyetnam
EFIOPIYA	NAMIBIYA	Yaman
FINLANDIYA	NEPAL	ZAMBIYA
FRANSA	GOLLANDIYA	ZIMBABVE
GABON	YANGI ZELANDIYA	
Gruziya	NIKARAGUA	
GERMANIYA	NIGER	
	NIGERIYA	

Agentlik nizomi 1956-yil 23-oktabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh qarorgohida, Nyu-Yorkda bo'yilib o'tgan MAGATE nizomi bo'yicha konferentsiya tomonidan tasdiqlangan; u 1957 yil 29 iyulda kuchga kirdi. Agentlikning bosh qarorgohi Venada joylashgan. Uning asosiy maqsadi atom energiyasining butun dunyoda tinchlik, salomatlik va farovonlikka qo'shgan hissasini tezlashtirish va kengaytirishdir.

1.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Convention on Nuclear Safety." IAEA, 1994.
<https://www.iaea.org/topics/nuclear-safety-conventions/convention-nuclear-safety>

2. "Joint Convention on the Safety of Spent Fuel Management and on the Safety of Radioactive Waste Management." IAEA, 1997. <https://www.iaea.org/topics/nuclear-safety-conventions/joint-convention-safety-spent-fuel-management-and-safety-radioactive-waste>
3. "Convention on the Physical Protection of Nuclear Material." IAEA, 1980; revised in 2005. <https://www.iaea.org/publications/3449/convention-on-the-physical-protection-of-nuclear-material>
4. "Legal Framework for IAEA Safeguards." IAEA, 2013. <https://www.iaea.org/publications/rights-and-permissions>
5. Statute of IAEA, 1957. <https://www.iaea.org/about/statute>
6. "2019-2029-yillarda O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident qarori, 2019. <https://teletype.in/@uzatomagency/shtabuz>
7. "2019-2029-yillarda O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident qaroriga asosan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi", 2019. <https://lex.uz/docs/-4194034>
8. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/05/27/nuclear-station-uzbekistan/>
9. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/16/small-aes/>
10. **Kuper, D., va Kraytov, A.** *International Nuclear Law: History, Evolution, and Outlook*. Cambridge University Press, 2017.